



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 29-yanvar

37-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 16-yanvardagi PF–6-son Farmoni ijrosi haqida”gi 32-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining investitsion jozibadorligini va raqobatbardoshligini yanada oshirish, sohaning eksport salohiyatini kengaytirish, mahalliy to‘qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi uchun sharoitlar yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 16-yanvardagi PF–6-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-yanvardagi 32-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 27-yanvardagi 32-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-yanvardagi PF–6-son Farmoni bilan: 2025 – 2027-yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilanganligi:

mahsulotlar eksportini 2025-yilda 4,0 milliard AQSH dollariga, 2026-yilda 5,0 milliard AQSH dollariga va 2027-yilda 7,0 milliard AQSH dollariga yetkazish;

AQSH va Yevropa davlatlari bozorlariga tayyor mahsulotlar eksportini 500 million AQSH dollariga yetkazish;

ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy qilish hamda xalqaro brendlarni jalb qilish orqali jami eksportda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ulushini 70 foizga yetkazish;

ip-kalavani chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish maqsadida 5,0 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilish;

belgilanishicha, to‘qimachilik tarmog‘ida qayta ishlashni chuqurlashtirish uchun qulay moliyaviy shart-sharoitlar yaratish maqsadida quyidagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi:

a) ip-kalava va matoning eksport yig‘imidan (bojidan) tushadigan mablag‘lar to‘liq miqdorda Tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) yo‘naltirilishi;

b) Jamg‘armaning ip-kalava va matoning eksport yig‘imidan tushadigan mablag‘larining 2025-yilda 15 million AQSH dollari (2026-yildan boshlab kamida 80 foizi) hamda ishlab chiqarish uskunalari xaridini subsidiyalash uchun nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan 15 million AQSH

dollar gazlama, mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari (keyingi o‘rinlarda – Loyihalar) doirasida asbob-uskunalar xarid qilishni kreditlash uchun xorijiy valyutada tijorat banklariga yo‘naltirilishi, shuningdek, zarur hollarda, Savdo-sanoat palatasi yoki “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tomonidan Loyihalarda ta‘sischi (ishtirokchi) sifatida qatnashish uchun foydalanilishi mumkinligi;

d) mazkur bandning “b” kichik bandida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan:

kreditlar tadbirkorlik subyektlari buyurtmasiga asosan asbob-uskuna qiymatining 15 foizi miqdorida bo‘nak (avans) to‘lovlarini moliyalashtirish uchun xorijiy valyutada yillik 4 foiz stavkada (shundan 2 foiz bank marjasi) 7 yil muddatgacha ajratilishi, bunda asbob-uskuna qiymatining qolgan qismiga tadbirkorlik subyekti tomonidan tijorat banklari orqali mablag‘ jalb qilinishi;

Savdo-sanoat palatasi yoki “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi Loyihalarni amalga oshirish uchun ochilgan maxsus maqsadli korxonaning (SPV) ustav kapitaliga 25 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ulushdor bo‘lib kirishi va 5 yil muddat ichida ulushni baholangan qiymatda sotgan holda Jamg‘armaga qarzni xorijiy valyutada qaytarishi, bunda Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari bo‘yicha “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK ijobiy xulosasi talab etilishi;

e) “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) tomonidan Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasi hisobidan korxonalariga xalqaro (“GOTS”, “OEKO-TEX”, “BCI”, “BSCI”, “Organic Cotton”, “SEDEX” va shu kabi) sertifikatlarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash uchun beriladigan moliyaviy yordam miqdori doirasida mazkur sertifikatlarni olish talablariga javob berish uchun amalga oshirilgan boshqa xarajatlar ham qoplab berilishi;

Savdo-sanoat palatasining Kompaniya huzurida mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklida ustav fondi 10 milliard so‘m bo‘lgan faktoring tashkilotini (keyingi o‘rinlarda

– Faktoring tashkiloti) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi; belgilanishicha:

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi Kompaniyaga uning buyurtmasiga asosan 5 yil muddatga 2028-yil 1-yanvardan qaytarish sharti bilan yillik 4 foiz stavkada 100 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratilishi;

mazkur bandning ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan mablag‘lar Kompaniya tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga qulay shartlarda faktoring va lizing xizmatlari hamda to‘qimachilik sanoati korxonalariga xomashyo xarid qilish va sotish bo‘yicha savdo operatsiyalari uchun moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishga yo‘naltirilishi;

ajratiladigan mazkur mablag‘larni samarali boshqarish uchun Kompaniya huzurida alohida yuridik shaxslar tashkil etishga ruxsat berilishi;

Faktoring tashkiloti faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlar Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 53-son Farmonining 3-bandi “b” kichik bandida nazarda tutilgan paxta ip-kalavasi eksporti yig‘imi bo‘yicha qarzdorliklar undirilib, mazkur mablag‘lar hisobidan qarzdorlik shakllangan yilda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini eksport qilgan korxonalarni amalga oshirgan eksporti hajmiga mutanosib ravishda subsidiyalashga ruxsat berilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Rasulov) Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev), Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (O.Akbarov), “Namangan” erkin iqtisodiy zonalari direksiyasi (S.Parpiyev) hamda Namangan viloyati hokimligi bilan birgalikda bir oy muddatda Namangan viloyatida 30 gektar yer maydonida maxsus huquqiy, soliq, bojxona, valyuta rejimlari o‘rnatiladigan, chuqur qayta ishlangan tayyor kiyim-kechaklar va uy tekstili mahsulotlarini ishlab chiqarishga

ixtisoslashgan to'qimachilik maxsus sanoat zonasini (keyingi o'rinlarda – Sanoat zonasi) tashkil etish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

Bunda Sanoat zonasida bojxona postini tashkil qilish, tovarlarni erkin muomalaga chiqaradigan korxonalar uchun soliq imtiyozlarini noteng qo'llashga yo'l qo'ymaslik nazarda tutilganligi hamda ishlab chiqarish binolarini xorijiy davlatlar (Xitoy, Koreya, Turkiya) tajribasi asosida ko'p qavatli (2-3 qavat) qilib qurish inobatga olinganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov va tuman hokimining o'rinbosari – investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov